

**BEMOR PARVARISHI. YATROGENIYA. YATROGENIK KASALLIKLAR.**

**Toshkent Davlat Stomatologiya Instituti 1-Bosqich Talabasi
Hayrullayeva Mahzumabonu Muzaffarbekovna**

Ilmiy Raxbar: Axmadaliyeva Dono Taganovna.

Annotatsiya: Bemorlarning parvarishi bu - bemorning ahvolini engillatish uchun, tibbiy profilaktika va sanitariya chora-tadbirlarini, shifokor tomonidan tayinlangan muolajalarni o'z vaqtida amalga oshirish va diagnostika tartibidagi muolajalarni belgilash va o'tkazish, bemorlarni nazorat qilish va uning holatini monitoringini amalga oshirish - birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va unga mos bo'lgan tibbiy xujjatlarni rasmiylashtirishdir.

Kalit so'zlar: Bemor parvarishi, tibbiy sir, yatrogeniya, yatrogenik kasalliklar, umumiy parvarish, xususiy parvarish, tibbiy xatolar.

Tibbiyot sohasidagi har qanday ishchi shafqat, mehribonlik, sezgirlik va javobgarlik, bemorga g'amxo'rlik va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi kerak. Ibn Sino bemorga alohida yondashuv haqida: "Siz har bir kishining shaxsan o'ziga xos tabiati borligini bilishingiz kerak. Hech kimga o'xshamaydigan noyob bemor sifatida qarash kerak. Bu so'z nafaqat nutq madaniyatini, balki hushmuomalalik hissi, bemorning kayfiyatini ko'tarish, uni ehtiyotkorona ifodalash bilan jarohatlamaslik ma'nosini anglatadigan so'zdir. Bemorlarni parvarish qilishni amalga oshirishda ikkita asosiy yo'nalish mavjud: umumiy parvarish va maxsus parvarish.

- Umumiy parvarish - kasallikning tabiatidan qat'i nazar (umumiy tekshiruv, tana haroratini o'lchash va boshqalar) umumiy parvarishlash tadbirlarini amalga oshirish.
- Maxsus parvarish - kasallikning tashxisiga (masalan, xoletsistografiya uchun kasal tayyorlash, siydik pufagi kateterizatsiyasiga) qarab spetsifik parvarish qilish tadbirlarini amalga oshirish.

Yatrogenik kasalliklar. Bemor bilan muloqotning deontologik printsiplarini buzish, kasallikning rivojlanishiga olib kelishi mumkin, bu yatrogenik kasalliklar deb ataladi (yunoncha -iatros - vrach, -genesis - hosil bo'ladi, paydo bo'ladi). Yatrogen kasalliklar (yatrogeniya) bemorning patologik axvalidir, bu kasallik shifokor yoki boshqa tibbiy xodimning beparvoligi yoki nojo'yaharakatlaridan kelib chiqadi. Bemorga og'zaki muloqotlarning kamligi, zararliligi turli xil psixogen shikastlanishlarga olib kelishi mumkin. Ammo 300 yildan ortiq vaqt oldin «Ingliz Gipokrati» Tomas Sidenxem (1624-1689) bemor uchun nafaqat bemorning ruxini jaroxatlaydigan tibbiy xodimning harakati, balki boshqa mumkin bo'lgan omillarni - tibbiy manipulatsiyalarning noto'g'ri oqibatlarining xavfini ta'kidladi. Shuning uchun hozirgi vaqtda yatrogenik kasallikning kelib chiqishi tibbiyot xodimlarining muayyan harakatlariga bog'liq bo'lgan har qanday kasallikka taalluqlidir.

Tibbiy sir. Bemorlarni deontologik parvarish qilish tibbiy sirlarni birgalikda saqlash zarurligiga bog'liq. Tibbiy xodimlar chuqur shaxsiy xarakterdagi kasallik haqida ma'lumot berishga xaqli emaslar. Biroq, bu talab boshqa shaxslarga xavf tug'diradigan xolatlarga



taalluqli emas: venerik kasalliklar, yuqumli kasalliklar, inson immunitet tanqisligi virusi (OITV) infeksiyasi, zaharlanish va hokazolar. Bunday xolatlarda sog'liqni saqlash xodimlari tegishli tashkilotlarga zudlik bilan ma'lumot berishlari kerak. Yuqumli kasallik, oziq-ovqatdan zaharlanish yoki pedikulyoz aniqlangan xollarda epidemiologiya va sanitariya-epidemiologiya tadbirlarini o'tkazish uchun, sanitariya-epidemiologiya stantsiyasiga tashxis qo'yilgan ondayoq telefon orqali ma'lumot berish va shu bilan birga tugallangan favqulodda xabarnoma shaklini yuborish zarur.

Tibbiy xatoliklar. Tibbiy xodimning ma'naviy-axloqiy me'yorlariga rioya etishi nafaqat ularning vazifalarini bajarishga, balki o'z vazifalarini bajarishdan qochish yoki professional bo'lmagan tarzda bajarganligi uchun javobgarlikni ham ta'minlaydi. Tibbiy xodimning faoliyatida ham xatolar, ham tibbiy huquqbuzarlik sodir bo'lishi mumkin. Tibbiy amaliyotda xatolar adashishlar bilan bog'liq. Tibbiy qonunbuzarliklar o'z kasbiy majburiyatlariga befarq munosabatda bo'lishdan kelib chiqadi. Xuddi shunday jinoyat, masalan, dori vositalarini noto'g'ri qo'llash, ayniqsa, kuchli dori-darmonlarni ko'plab ko'llash fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkin. Yatrogeniya- bu shifokorning noto'g'ri va to'g'ri xarakatlari asosida rivojlanib, natijada organizm funksiyalari buzilishi, odatiy faoliyatini cheklashi, nogironlik yoki o'limga olib keluvchi profilaktik, diagnostik, davolash aralashuvi va muolajalarning noxush asoratlaridir. —Yatrogeniya termini yunon tilidan olingan bo'lib, iatros – shifokor + genes – keltirib chiqaruvchi, ya'ni —shifokor tomonidan keltirib chikarilgan kasallik degan ma'noni anglatadi. Yatrogeniya asosida xulq atvor me'yorlarini buzilishi, bilim va malakaning yetishmasligi va sovuqqonlik yotadi. Bunda asosiy rol, shubxasiz, shifokorlik etikasini buzilishi o'ynaydi. SHuning uchun deontologiya va yatrogeniya muammolari o'zaro bog'liqdir. Yatrogeniya sabablari ko'lami keng. Bugungi kunda yatrogen patologiyasi e'tibor berilmaydigan yoki sezmaslik mumkin bo'lmagan jiddiy tibbiy-ijtimoiy muammoga aylandi. SHuni qayd etish kerakki yatrogeniyaning o'sib borishi, shifokorning be'morga bo'lgan salbiy psixologik va psixik ta'siriga bog'liq. Adabiyotlarda yana yatrogeniyaning diagnostik va davolash patologiyalari, davolash va tashxis asoratlari, tibbiyotdagi noxush xolatlar, dori kasalligi, dorilarning nojo'ya ta'siri, —ikkilamchi kasalliklar, hospitalizm dab xam ataladi. Xirurgiyada yatrogen patologiyaning quyidagi turlari ajratiladi:

Psixogen, somatik, dori, infeksiya va aralash.

Psixogen yatrogeniya – bu salbiy psixogen omillar ta'sirida rivojlanuvchi kasallik.

Psixogen yatrogeniya nevroz, psixoz, nevrasteniyasi, isteriya, fobiya, depressiya, ko'rquv xissi, depressiv va ipoxondrik buzilishlar shaklida namoyon bo'ladi. Ular tibbiyot xodimining be'mor salomatligi to'g'risida noto'g'ri va extiyotsizlik bilan ma'lumot berishi, be'morni o'z kasallik tarixi va maxsus tibbiy adabiyotlar bilan tanishishi, ommaviy ma'ruzalarni eshitish, ayniqsa televizor orqali noto'g'ri tushunchaga ega bo'lishidan kelib chiqadi. Shifokor be'mor bilan muloqotga kirishganda shuni esda tutishi kerakki, u be'mor uchun katta ma'lumot manbaidir va unga qarab be'mor o'z xolati haqidagi ma'lumotga ega bo'ladi.

Dori yatrogeniyasi – bu be'morda shifokor buyurgan dori moddalarini qabul qilingandan keyin kelib chiquvchi buzilishlardir.



Somatik yatrogeniyalar – bu turli xil tibbiy muolajalar (jarrohlik operatsiyalari, anesteziologik yordamlar, reanimatsion yordamlar, davolashdiagnostik muolajalar, profilaktik muolajalar) natijasida kelib chiquvchi kasallik.

Infeksion yatrogeniya – bu be‘morda tibbiyot xodimlarining noto‘g‘ri xarakatlari tufayli kelib chiquvchi infeksiya. Infeksion yatrogeniyaning sababi diagnostik, organizatsion va davolash – profilaktik tadbirlarda aseptika konunlariga rioya qilmaslik. Bundan tashqari infeksiion yatrogeniya sababi gemokomponent terapiya va emlashlarni o‘tkazishda ehtiyot qoidalarini buzish. Faqatgina jarrohlik amaliyotining barcha bosqichlarida aseptika qoidalariga qat‘iy rioya qilishgina infeksiion yatrogeniyaning oldini olish imkonini beradi. Barcha sanalgan yatrogeniyalarning jarrohlikka aloqasi bor. Ayniqsa somatik yatrogeniyalar guruxidan eng xavflisi bo‘lib diagnostik yatrogeniyalar xisoblanadi, u esa o‘z ortidan noto‘g‘ri davolash, invaziv tekshirish usullaridan keyin infeksiion asoratlari kelib chiqishi mumkin. Tibbiyotda turli yatrogen patologiyalar kelib chiqish sabablari xar xil bo‘lib, ular jarrohlik bo‘limi shifokori ishining turli bosqichlarida kelib chiqishi mumkin. Diagnostik bosqichda: - Be‘mor axvolini tavsiflovchi anamnez va ob‘yektiv ma‘lumotlar, laborator, apparat – instrumental va boshqa ko‘rsatkichlarni yetarli darajada bo‘lmasligi. - Diagnostik va jarrohlik muolajalari natijasida a‘zo va to‘qimalarning jarohatlanishi.

- Turli xil reaksiya va asoratlarga olib keluvchi diagnostik va medikamentoz preparatlarni buyurish.

- Be‘morning tashqi ko‘rinishi, xidi, harakatlariga bo‘lgan salbiy muomila.

- Be‘morga bo‘lgan professional muomila chegaralaridan chiquvchi hulq, be‘mor —shaxsiy hayotiga aralashish.

Davolash – profilaktika bosqichida:

- Operatsiyaga tayyorgarlikni noto‘g‘ri va yetarli bo‘lmasligi, operatsiyadan oldingi va keyingi profilaktika asoratlari

- Operatsiyani noto‘g‘ri bajarish (operatsiya ko‘lamini asossiz ravishda kengaytirish yoki kamaytirish, tavsiya etilmagan jarrohlik aralashuvlarini bajarish, a‘zo va to‘qimalarning jarohatlanishi, yot jismni qoldirish)

Foydalanilgan adabiyotlar:

ГРАМОТА.РУ — справочно-информационный интернет-портал «Русский язык» | Словари | Проверка слова

Schwarz O. Psychogenese und Psychotherapie körperlicher Symptome. — Wien, 1925. (Сборник работ Шильдера, Бауера, Брауна, Гейера, Штраудберга, Майера (Schilder, Bauer, Braun, Heyer, Straudberg, Mayer).)

Bumke O. Der Arzt als Ursache seelischer Störungen // Deutsche Medizinische Wochenschrift, 1925; 51 (1): 3

Каннабих Ю. В. К профилактике одной из форм реактивной (иатрогенной) депрессии // Профилактика нервных и психических заболеваний / Ред. Давыденков



С. Н., Розенштейн Л. М. — Москва: Издательство Мосздравотдела, 1929. — С. 75—88

Платонов К. И. Слово как физиологический и лечебный фактор // Психотерапия. Сборник статей под ред. проф. К. И. Платонова. Труды Государственного психоневрологического института Народного комиссариата здравоохранения УССР. — Харьков: Государственное издательство Украины, 1930.

ВОЗ призывает к принятию неотложных мер для снижения вреда, наносимого пациентам при оказании медицинской помощи“. Всемирная организация здравоохранения (13-sentabr 2019-yil).

Avdeev A. I., Kozlov S. V. Yatrogen patologiya (sud-tibbiyot ko'rinishi) // „Sud tibbiyoti va ekspert amaliyotining dolzarb masalalari“. - Novosibirsk, 2009 yil.

Лурия Р. А.. Внутренняя картина болезней и иатрогенные заболевания, 4-е изд 15.000 экз, М.: Медицина, Lua xatosi: bad argument #2 to 'formatDate': invalid timestamp 'Yanvar'..

Whitfield CL. Psixiatrik dorilar travma agenti sifatida // Tibbiyotda xavf va xavfsizlik xalqaro jurnali. - 2010 yil. — Yo‘q. 22. — P. 195–207. - doi : 10.3233/JRS-2010-0508.

